

G’ofurjonova Muazzamxon Umid qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
1-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada o‘zbek va ingliz tillarida gaplarning grammatik tuzilishi qiyosiy jihatdan kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda tilshunoslikning muhim sohasi bo‘lgan grammatika, uning asosiy bo‘limlari — morfologiya va sintaksis haqida nazariy ma’lumotlar beriladi. Xususan, sintaksisning o‘rganish obyektlari sifatida so‘z birikmasi va gapping mohiyati, ularning struktur va funksional xususiyatlari izohlanadi. Ishda o‘zbek tilidagi gaplarning SOV (ega + to‘ldiruvchi + kesim) modeli va ingliz tilidagi gaplarning SVO (ega + kesim + to‘ldiruvchi) modeli chuqur qiyosiy asosda o‘rganiladi. Har ikki tilga xos gap turlari — darak, so‘roq, buyruq va his-hayajon gaplar keng misollar orqali tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: grammatika, morfologiya, sintaksis, gap, so‘z birikmasi, ega, kesim, to‘ldiruvchi, qiyosiy tahlil, SOV, SVO, sintaktik tuzilish.

Abstract: This scientific article provides a comprehensive comparative analysis of the grammatical structure of sentences in Uzbek and English. The study provides theoretical information about grammar, an important area of linguistics, its main sections - morphology and syntax. In particular, the word combination and the essence of the sentence as objects of study of syntax, their structural and functional properties are explained. The work studies the SOV (subject + object + clause) model of sentences in Uzbek and the SVO (subject + object + clause) model of sentences in English on a deep comparative basis. The types of sentences characteristic of both languages - declarative, interrogative, imperative and emotional sentences are analyzed using a wide range of examples.

Keywords: grammar, morphology, syntax, sentence, phrase, subject, predicate, object, comparative analysis, SOV, SVO, syntactic structure

Аннотация: Данная научная статья представляет собой всесторонний сравнительный анализ грамматической структуры предложений в узбекском и английском языках. Исследование предоставляет теоретическую информацию о грамматике, важной области лингвистики, её основных разделах – морфологии и синтаксисе. В частности, объясняется словосочетание и сущность предложения как объекта изучения синтаксиса, его структурные и функциональные свойства. В работе на глубокой сравнительной основе изучается модель предложений SOV (подлежащее + дополнение + придаточное предложение) в узбекском языке и

модель SVO (подлежащее + дополнение + придаточное предложение) в английском языке. Типы предложений, характерные для обоих языков – повествовательные, вопросительные, повелительные и эмоциональные предложения – анализируются на широком спектре примеров.

Ключевые слова: грамматика, морфология, синтаксис, предложение, словосочетание, подлежащее, сказуемое, дополнение, сравнительный анализ, SOV, SVO, синтаксическая структура

Kirish. Til insoniyatning eng muhim kommunikativ vositasi bo‘lib, u orqali fikr almashish, bilim uzatish va ijtimoiy munosabatlar amalga oshiriladi. Har bir til o‘zining ichki grammatik tizimiga ega bo‘lib, bu tizim til birliklarining shakllanishi va qo‘llanish qonuniyatlarini belgilaydi. Gap — muayyan til qonuniyatiga ko‘ra grammatik va intonatsiyaviy shakllangan nutq birligi. Fikr shakllanishi va ifodalanishining asosiy vositasi. Gap so‘z, so‘z birikmalariga qarama-qarshi qo‘yiladigan sintaktik kategoriyadir. Predikativlik, modallik, xabar intonatsiyasi, marom-ohang, tugallanganlik, so‘zlar tartibi Gapning muhim xususiyatlaridandir. Kommunikativlik — Gapning bosh vazifasi. Gaplar quyidagi nuqtai nazardan tasnif qilinadi:

a) tarkibidagi predikativ birlikning miqdoriga ko‘ra. Bunda sodda gap, qo‘shma gap farqlanadi

b) kommunikativ vazifasiga ko‘ra. Bunda Gaplar 3 tur ga bo‘linadi: darak gap, so‘rok gap va undov gap;

v) estetik vazifasiga ko‘ra emotsional (so‘zlovchining turli emotsiyasini, emotsional munosabatlarni ifodalovchi) gap hamda intellektual (hech qanday emotsiyalarsiz faqat fikrning o‘zini ifodalaydigan, kommunikativ vazifani bajaradigan) gaplar mavjud. Gap bo‘laklari Gapni tashkil etuvchi qismlar hisoblanadi.

O‘zbek, umuman turkiy tillar uchun til birliklarining nutqda grammatik xususiyatlar asosida birikuvidan tashkil topgan sintaktik butunlikdan iborat gaplar xosdir.

Grammatika tilshunoslikning asosiy bo‘limlaridan biri bo‘lib, u ikki muhim qismdan iborat:

morfologiya — so‘zlarning tuzilishi va o‘zgarishini o‘rganadi

синтаксис — so‘zlarning gap ichida bog‘lanishi va gap tuzilishini o‘rganadi

Tilshunos Noam Chomsky sintaksisni tilning markaziy qismi sifatida baholab, uning inson tafakkuri bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — o‘zbek va ingliz tillarida gaplarning tuzilishini qiyosiy jihatdan tahlil qilish va ularning o‘xshash hamda farqli jihatlarini aniqlashdir.

Sintaksis masalalari tilshunoslik tarixida turli ilmiy maktablar tomonidan o'rganilgan.

Leonard Bloomfield struktur tilshunoslik asoschisi sifatida gapni formal birlik sifatida o'rganadi Bloomfieldga ko'ra, gap — bu mazmun yoki fikrdan ko'ra, shakl jihatdan tashkil topgan birlikdir. Ya'ni:gapning asosiy o'rganish obykti — uning tuzilishi (strukturasi);undagi birliklar (so'zlar, morfemalar) qanday tartibda kelgani muhim;ma'no (semantika) ikkinchi darajaga tushadi.

Michael Halliday funksional yondashuv asosida tilni kommunikativ vosita sifatida ko'rib chiqadi. Til — bu muloqot (kommunikatsiya) vositasi deb qaraydi. Funksional yondashuv nima?Halliday yaratgan funksional lingvistika (Systemic Functional Linguistics — SFL):tilni “qanday tuzilgan?” deb emas, “nima uchun va qanday ishlatiladi?” deb o'rganadi.Ya'ni:gapning shaklidan ko'ra,uning vazifasi (funksiyasi) muhim.

Zamonzviy tilshunoslikda yuqorida takitlangan bu uch olimning hissasi katta.Leonard Bloomfield tilni formal birliklar tizimi sifatida o'rganib, grammatika va sintaksis tahlilida asosiy metodlarni yaratdi. Bugungi kunda uning yondashuvi kompyuter lingvistikasi va matnlarni avtomatik tahlil qilishda qo'llaniladi.

Noam Chomsky esa generativ grammatika orqali tilni inson ongidagi qoidalar tizimi sifatida tahlil qiladi. Bu nazariya sun'iy intellekt va til modellari, jumladan ChatGPT kabi chatbotlarda qo'llanadi.

O'zbek tilshunosligida A.G'ulomov, Nizomiddin Mahmudov va A.Nurmonov sintaksis rivojiga katta hissa qo'shgan. Jumladan, A. G'ulomov o'zbek tilini struktur jihatdan tahlil qilishga katta e'tibor bergan. U:gap va so'z tuzilishini,morfemalarni, so'z turkumlarini,sintaktik munosabatlarni sistematik tarzda o'rganishni ilgari surgan. U o'zbek tilining morfologik qonuniyatlarini aniqlash,so'z yasash va qo'llanish qoidalarini o'rganish,gap tarkibi va jumla tuzilishini tahlil qilish sohalarida muhim ilmiy ishlarga imzo chekkan.Bundan tashqari, Nizomiddin Mahmudov tilshunoslikka oid 300 dan ortiq ilmiy asarlar yozgan, shulardan qirqdan ortig'i alohida kitoblar sifatida chop etilgan.Uning ilmiy ishlari semantik–sintaktik tahlil, so'z estetikasi va gap tuzilishi, til shakli va mazmuni munosabatlari kabi muhim masalalarni o'rganishga qaratilgan.Mahmudov “So'z estetikasi”, “Gapda forma va mazmun”, “O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis” kabi ilmiy monografiyalar orqali tilning strukturaviy va ma'naviy qatlamlarini tadqiq qilgan.

ASOSIY QISM

Grammatika — tilshunoslikning tildagi so'zlar shakllanishi, ularning o'zaro birikishi va gap hosil qilish qoidalarini, shuningdek, grammatik ma'nolarni

o'rganuvchi bo'limidir. U so'z turkumlari, gap tuzilishi, so'z o'zgarishi va imlo qoidalarini tizimli ravishda o'rgatadi.

Grammatika quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi:

Morfologiya: So'zlarning turkumlarga bo'linishi (ot, sifat, fe'l va h.k.), ularning shakllanishi va o'zgarish qoidalarini o'rgatadi.

Sintaksis– tilshunoslikning so'z birikmasi va gaplarning tuzilishi, ularning o'zaro munosabati hamda nutqdagi funksiyasini o'rganuvchi bo'limidir. Uning asosiy obyektlari so'z birikmasi (sintaktik qurilma) va gap (fikr ifodalovchi sintaktik birlik) bo'lib, ular sintaktik tahlil orqali tizimli o'rganiladi. Sintaksisning o'rganish obyektlariga quyidagilar kiradi: So'z birikmasi: Ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zning tobelanish munosabati orqali birikishi (masalan: olma daraxti, kitobni o'qimoq).

Gap: Tugallangan fikrni, tasdiq yoki inkor hukmni ifodalovchi sintaktik birlik. Ingliz tilining sintaksisi hozirgi holatiga XVIII-XIX asrlardagi tilshunoslar tomonidan olib borilgan izlanishlar sabab bo'lgan. O'zbek tili sintaksisi ,ya'ni gap qurilishi haqida ta'lumot XX asrning 20-30-yillarida shakllana boshlagan. Uning ilmiy-nazariy asoslari va dastlabki tadqiqotlar A.Fitrat, G'.Abdurahmonov, A.G'ulomov, A.Ramazon kabi tilshunos olimlar tomonidan yaratilgan .

Sintaktik munosabatlar: So'zlarning birikish va gap tarkibida o'zaro bog'lanish usullari.

Gap bo'laklari: Ega, kesim (bosh bo'laklar), to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol (ikkinchi darajali bo'laklar).

So'z birikmasi. So'z birikmasi — ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zlarning grammatik bog'lanishi.

Misollar:

yaxshi bola (sifat + ot)

read a book (fe'l + obyekt)

Gap. Gap tugallangan fikrni bildiradi va kommunikativ birlik hisoblanadi. O'zbek tilidagi gap tuzilishida so'z tartibiga nisbatan moslashuvchanlik mavjud. Bu til xususiyati shundaki gapda sozlarning o'zni o'zgarsa ham, ma'nosi deyarli o'zgarmaydi. Ammo, fokus qaratilayotgan narsa o'zgaradi Masalan:

Men kecha o'quvchilarimni teatrga olib bordim. (Aynan teatrga olib borilgani haqida ma'lumot beryapti)

O'quvchilarimni kecha teatrga men olib bordim. (Boshqa odam emas aynan o'zi olib borgani haqida ma'lumot beryapti)

Men o'quvchilarimni teatrga kecha olib bordim. (Boshqa kun emas kecha olib borgani haqida ma'lumot beryapti)

O'zbek tilidagi gap tuzilishining ingliz tilidan yana bir farqi uning agglutinativ til ekanligida.

Ingliz tili analitik til bo'lib, unda so'z tartibi muhim rol o'ynaydi. Ya'ni so'zlarning o'rnini almashishi ma'noning yo'qotilishiga sabab bo'ladi. Asosiy model: SVO (Subject + Verb + Object)

Misollar:

I read a book

She likes music

They play football

O'zbek tilida gaplar ifoda va maqsadiga ko'ra 4turga bo'linadi: darak gap, so'roq gap, buyruq gap, his hayajon gap (undov gap).

Darak gap: Biror voqea hodisa haqida xabar berishda ishlatiladi.

Masalan: Kecha ob-havo biz kutgandek bo'lmagani uchun parkka borish fikridan qaydik.

So'roq gap: Biror narsa yoki hodisa haqida so'rash maqsadida ishlatiladi. Asosan Kim? Nima? Qaysi? Qanday? Kabi maxsus so'roq so'zlar orqali, -mi, -chi, -a, -ya yuklamalari orqali intonatsiya orqali yasaladi.

Masala: Kim haqida o'ylayapsan?

Buyruq gap: Kommunikativ vazifasiga ko'ra buyurish, iltimos qilish, maslahat ma'nolari ifodasini anglatadi.

Masalan: Siz o'g'lim, otangizni aytganini qiling.

Undov gap: so'zlovchining kuchli his hayajoni, voqelikka bo'lgan turlicha emotsional munosabatini ifodalovchi gap.

Masalan: Eh, bu vodiylar naqadar go'zal!

Ingliz tilida ham gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra 4turga bo'linadi:

Darak gap (Declarative sentence / Fakti gap) Ma'lumot berish, fakti aytish uchun ishlatiladi.

O'zbek tilida: Men maktabga bordim.

Tuzilishi: Subyekt + Predikat + Qo'shimcha (SOV)

So'z tartibi biroz erkin, qo'shimchalar ma'noni belgilaydi.

Ingliz tilida: I went to school.

Tuzilishi: Subject + Verb + Object (SVO)

So'z tartibi qat'iy, fe'l zamoniga qarab o'zgaradi.

Hosil bo'lishi oddiy: subyektdan keyin fe'l, so'ng ob'ekt yoki joy/vaqt.

So'roq gap (Interrogative sentence / Savol gap)

Ma'no: Savol berish, ma'lumot olish uchun ishlatiladi.

O'zbek tilida: Siz maktabga bordingizmi?

Tuzilishi: Subyekt + Predikat + Qo‘shimcha (intonatsiya bilan)
“-mi”, “-dimi” qo‘shimchalari yordamida so‘roq hosil qilinadi.

Ingliz tilida: Did you go to school?

Tuzilishi: Did + Subject + Main Verb + Object?

Hozirgi zamon uchun: Do/Does + Subject + Main Verb?

O‘tgan zamon uchun: Did + Subject + Main Verb?

Hozirgi davom etayotgan zamon: Is/Are + Subject + Verb-ing?

Misollar:

O‘zbekcha: U kitob o‘qiyaptimi?

Inglizcha: Is he reading a book?

Undov gap (Imperative sentence / Buyruq gap)

Ma’no: Buyruq, maslahat yoki ogohlantirish uchun ishlatiladi.

O‘zbek tilida: Kitobni o‘qi!

Tuzilishi: Predikat + Qo‘shimcha (Subyekt odatda tushiriladi)

Ingliz tilida: Read the book!

Tuzilishi: Verb + Object (Subject implied “you”)

Buyruqni ifodalash uchun fe‘l boshida keladi, kerak bo‘lsa oxiriga “please” qo‘yish mumkin.

Misollar:

O‘zbekcha: Shoshilma!

Inglizcha: Don’t hurry!

Qiyosiy tahlil

O‘xshashliklar: Ega va kesim mavjud. Gap turlari o‘xshash. So‘z birikmalari mavjud

Farqlar: O‘zbek tilida fe‘l oxirida. Ingliz tilida fe‘l egadan keyin. O‘zbek tilida qo‘shimchalar muhim. Ingliz tilida so‘z tartibi qat’iy

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va ingliz tillarida gap turlari ko‘p jihatdan umumiy maqsadga xizmat qilsa-da, ularning hosil bo‘lishi, tuzilishi va so‘z tartibi jihatdan sezilarli farqlar mavjud.

Birinchi dan, darak gaplar (declarative sentences) har ikkala til uchun asosiy vazifani bajaradi — ya’ni fakt yoki ma’lumotni yetkazadi. O‘zbek tilida darak gaplarning so‘z tartibi nisbatan erkin bo‘lib, SOV (Subyekt–Obyekt–Predikat) shakli ko‘p uchraydi va ma’no ko‘pincha qo‘shimchalar orqali belgilanadi. Ingliz tilida esa darak gaplar qat’iy SVO (Subject–Verb–Object) tartibida bo‘lishi kerak, va fe‘lning zamon shakli ma’noni

belgilaydi. Bu tilning analitik tabiati bilan bog'liq bo'lib, so'z tartibi grammatikani aniq ifodalashda muhim rol o'ynaydi.

Ikkinchidan, so'roq gaplar (interrogative sentences) ikki tilda ham savol berish maqsadida ishlatiladi, lekin hosil bo'lish mexanizmi farq qiladi. O'zbek tilida so'roq qo'shimchalari (-mi, -dimi) va intonatsiya yordamida amalga oshiriladi, so'z tartibi esa ko'pincha erkin bo'lishi mumkin. Ingliz tilida esa so'roq gaplar yordamchi fe'llar (do, does, did, is, are) bilan tuziladi va SVO tartibi qat'iy saqlanadi. Shu bilan birga, ingliz tilida zamon va aspektni aniqlash uchun yordamchi fe'l muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, undov gaplar (imperative sentences) ikki tilda ham buyruq, maslahat yoki ogohlantirishni ifodalaydi. O'zbek tilida buyruq predikat bilan boshlanadi va subyekt odatda tushiriladi. Ingliz tilida esa fe'l boshida keladi va subyekt har doim "you" sifatida tushuniladi, ya'ni ko'pincha ifodalanmaydi. Bu farq tilning sintaksis xususiyatlaridan kelib chiqadi: o'zbek tilida qo'shimchalar va kontekst yordamida ma'no yetkaziladi, ingliz tilida esa qat'iy so'z tartibi va yordamchi so'zlar ishlatiladi.

Umuman olganda, o'zbek tili sintetik va so'z tartibi erkin bo'lishi bilan ajralib turadi, grammatik ma'no ko'pincha qo'shimchalar va intonatsiyada mujassam. Ingliz tili esa analitik bo'lib, so'z tartibi qat'iy va yordamchi fe'llar bilan bog'liq bo'lgan zamon, aspekt va so'roq ifodalariga tayanadi. Shu sababli, o'zbek tilini bilgan kishi ingliz tiliga o'tganda so'z tartibi va yordamchi fe'l ishlatilishiga e'tibor qaratishi zarur, aksincha, ingliz tilini bilgan kishi o'zbek tilida qo'shimchalar va erkin so'z tartibi bilan tanish bo'lishi lozim.

Natijada, bu qiyosiy tahlil ikki tilning sintaksis xususiyatlarini ochib beradi, ularning o'zaro farq va o'xshashliklarini ko'rsatadi hamda til o'rganishda zamon, so'z tartibi va qo'shimchalarning rolini aniq belgilash imkonini beradi

O'zbek va ingliz tillarini qiyosiy tahlil qilish jarayonida men shuni aniqladimki, ikki tilning gap turlari umumiy funksiyaga ega bo'lsa-da, ularning sintaksis xususiyatlari sezilarli darajada farq qiladi. O'zbek tili sintetik va fleksiv bo'lib, so'z tartibi nisbatan erkin, lekin ma'noni aniqlashda qo'shimchalar muhim rol o'ynaydi. Ingliz tili esa analitik bo'lib, so'z tartibi qat'iy va yordamchi fe'llar orqali so'roq va zamon ifodalanadi. Shu jihat ikkala tilni o'rganishda alohida yondashuvni talab qiladi.

Shuningdek, bu farqlar til o'rganuvchilarga ikki muhim saboq beradi. Birinchisi, o'zbek tilida erkin so'z tartibi va qo'shimchalarga tayanish ingliz tilida noto'g'ri so'z tartibini hosil qilish xavfini oshiradi. Ikkinchisi, ingliz tilidagi qat'iy SVO tartibi va yordamchi fe'llar o'zbek tilida qoidalarni noto'g'ri qo'llashga olib kelishi mumkin. Shu sababli, til o'rganishda nafaqat so'z boyligi va lug'at, balki sintaksis tuzilishiga ham e'tibor qaratish zarur.

Yana shuni ta'kidlamochimanki, o'zbek va ingliz tilining gap turlari o'ziga xos sintaksis xususiyatlarga ega bo'lishi bilan birga, ularni o'rganish til bilimini yanada mukammal va chuqurroq qilish imkonini beradi. Til o'rganuvchi ikki tilni taqqoslab tahlil qilganda, faqat grammatik qoidalarni emas, balki tilning mantiqiy strukturasi, ma'noni ifodalash usullarini va kontekstga moslashish qobiliyatini ham chuqurroq tushunadi. Shu nuqtai nazardan, qiyosiy tahlil nafaqat ilmiy qiziqish, balki amaliy til o'rganish uchun ham juda foydali hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Noam Chomsky – Syntactic Structures 1957-yil
2. Leonard Bloomfield – Language 1933-yil
3. Michael Halliday – Functional Grammar 1985-yil
4. Otto Jespersen – Philosophy of Grammar 1924-yil
5. Shavkat Rahmatullayev – Hozirgi o'zbek tili 2006-yil
6. Nizomiddin Mahmudov-O'zbek tilining nazariy gramatikasi. Sintaksis"(1995)
7. Ayyub G'ulomov Sodda gap sintaksisi“ (1948), „O'zbek tili morfologiyasiga kirish“ (1953), „Sodda gap“ (1955)